

TARIX

- 1.** Quyida berilgan hukmdorlardan qaysi biri “to‘rt iqlim mamlakatlari podshosi” unvonini olgan?

A) **Sargon I** B) *Tutmos II*
C) *Navuxodonosor II* D) *Menes*

Test topshirig‘i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Sargon I mil.avv. 3-ming yillikning ikkinchi yarmida o‘z hukmronligi ostida Akkad va Shumer shaharlarini birlashtirdi. Qo‘snni mamlakatlarni zabit etib, “to‘rt iqlim mamlakatlari podshosi” unvonini olgan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent – 2017. (48-bet)

- 2.** Milodiy IV asrda Rim imperiyasini boshqargan imperatorlarni toping.
1) Trayan; 2) Feodosiy; 3) Romul Avgustul;
4) Konstantin

A) **2, 4** B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3

Test topshirig‘i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi.

1) Trayan – I-II asrlarda; 2) Feodosiy – IV asrda; 3) Romul Avgustul – V asrda
4) Konstantin – IV asrda Rim imperiyasini boshqargan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent – 2017. (48-bet)

- 3.** Qaysi voqeadan so‘ng Veymar Respublikasi o‘z faoliyatini yakunlagan?

A) Prezident Paul fon Gindenburg vafot etgach

B) Ikkinci jahon urushi boshlangach
C) Adolf Hitler hokimiyatdan ketgach
D) Myunxen shartnomasi imzolangach

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Germaniya prezidenti Paul fon Gindenburg 1934-yil vafot etgandan so‘ng Hitler Germaniyaning fyureri bo‘lib oladi. Prezident lavozimi bekor qilindi, shu vaqtadan boshlab Veymar Respublikasi amalda o‘z faoliyatini yakunlagan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Jahon tarixi 10-sinf darsligi. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent – 2017. (26-bet)

- 4.** To‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni toping.

A) 2005-yildan boshlab Oliy Majlis ikki palatali tizimda faoliyat yurita boshladi.

B) 1993-yil O‘zbekiston Respublikasida hokimlik lavozimi ta’sis etilgan.

C) O‘zbekiston Respublikasida hokimlarning vakolat muddati 4 yil etib belgilangan.

D) Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senat 150 nafar senatordan iborat.

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. 2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: N.Jo‘rayev, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2018. (14-bet)

5. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?

- A) **respublika tuzumi o'rnatish**
- B) cheklangan monarxiya tuzumi o'rnatish
- C) imperiyani qayta tiklash
- D) ishchilarga saylov huquqi berish

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Fransiya qiroli Karl X tomonidan 1830-yil mamlakat parlamenti tarqatib yuborildi. Qirol fuqarolarning saylov huquqlarini yanada cheklashini ma'lum qildi. Bu esa Parij shahrida inqilob boshlanishiga olib keldi. Inqilobning asosiy maqsadi Fransiyada Respublika tuzumini o'rnatish edi.

To'g'ri javob: A.

Manba: R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. "Cho'Ipon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (105-bet)

6. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida quyidagi qaysi hududda Italiyaning mustamlaka rejalarini amalga oshmadi va bu hudud o'z mustaqilligini saqlab qoldi?

- A) **Efiopiya** B) *Somali* C) *Liviya*
- D) *Eritreya*

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Italiya Efiopiyani o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida 1896-yilda bu davlatga hujum qildi. Adua yonida Italiya qo'shinlari tor-mor etildi va Efiopiya o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Somali, Liviya, Eritreya esa Italiya mustamlakasiga aylangan.

To'g'ri javob: A.

Manba: M.Lafasov, U.Jo'rayev, E.Xoliquov, D.Qodirova. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (85-123-betlar)

7. Buxoroda ashtarxoniyalar hukmronligi davrida qaysi omillar natijasida markaziy hokimiyat zaiflashgan?

- 1) Qo'qon xonligi bilan bo'lib o'tgan urushdagi mag'lubiyat; 2) devonlar orqali boshqaruv tizimining barbod bo'lishi;
- 3) taxtning otadan bolaga o'tmaganligi;
- 4) viloyatlarda hokimiyat viloyat hokimlari qo'lida to'planishi

A) **2, 4** B) 1, 4 C) 2, 3 D) 1, 3

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr tarixiga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ashtarxoniyalar davrida devonlar tizimi deyarli barbod bo'ladi. Markazda butun hokimiyat dargohda to'planib qoladi. Natijada devonlar mahalliy hokimliklarni boshqarish imkoniyatini qo'ldan chiqardi. Bu esa o'z navbatida viloyatlar butun hokimiyat hokimlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi mahalliy kuchlar qo'lida to'planib qolishiga olib keldi. Bu omillar natijasida ashtarxoniyalar hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashgan.

To'g'ri javob: A.

Manba: U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (30-bet)

8. Ikkinchi jahon urushi yillarida gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o‘zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya liderlarining qaysi shaharlarda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarida hal qilingan?
- 1) Yalta; 2) Minsk; 3) Potsdam; 4) Gdansk; 5) Bag‘dod; 6) Tehron
- A) **1, 3, 6** B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 6

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Urush yillari gitlerchilarga qarshi koalitsiya davlatlarining o‘zaro munosabatlariga oid asosiy masalalar SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya liderlarining uchrashuvlarida hal qilingan. Urush davomida shunday uchrashuvlar uchta – Tehronda (1943-yil), Qrim (Yalta)da (1945-yil), Potsdamda (1945-yil) bo‘lib o‘tgan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Jahon tarixi 10-sinf darsligi. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent – 2017. (72-bet)

9. 1990-yil sentabr oyida ikki nemis davlatini bitta – Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to‘g‘risidagi shartnoma qaysi shaharda imzolangan?

- A) **Moskvada** B) Berlinda
C) Londonda D) Bonnda

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. 1990-yil sentabr oyida Moskvada ikki nemis davlatini bitta – Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to‘g‘risida shartnoma imzolangan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Jahon tarixi 11-sinf darsligi. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent – 2018. (10-bet)

10. Quyidagilardan 1938-yilda Myunxen kelishuvini imzolagan shaxslarni toping.
- 1) Nevill Chemberlen; 2) Uinston Cherhill; 3) Vudro Vilson; 4) Benito Mussolini; 5) Paul Gindenburg; 6) Adolf Gitler; 7) Eduard Dalade; 8) Jorj Klemanso
- A) **1, 4, 6, 7** B) 1, 4, 5, 8 C) 2, 3, 6, 7
D) 2, 3, 5, 8

Test topshirig‘i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Boshlanishi muqarrar bo‘lib qolgan urushni sharqqa qarab yo‘naltirish maqsadida Nevill Chemberlen Adolf Gitler, Benito Mussolini va Eduard Dalade bilan birgalikda 1938-yili Myunxen kelishuvini imzoladi.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. Jahon tarixi 10-sinf darsligi. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent – 2017. (15-bet)

11. Quyidagi qo‘zg‘olonlardan qaysi biri Somonxudotning nabiralari tomonidan bostirilgan?

- A) **Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo‘zg‘olon**
B) “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘olon
C) Abu Muslim boshchiligidagi qo‘zg‘olon
D) G‘urak va Divashtich boshchiligidagi qo‘zg‘olon

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davriga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. 806-yilda arab lashkarboshchisi Rofe ibn Lays boshchilida xalifalikka qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Xuroson noibi Ma’mun Somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolardan iltimos qilib, yordam so‘raydi. Qo‘zg‘olon Somonxudot nabiralari tomonidan bostiriladi.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: A.Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent – 2017. (37-bet)

- 12.** O'rta Osiyoning quyidagi shaharlari Podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan egallangan yillariga qarab to'g'ri xronologik tartibda ko'rsatilgan javobni belgilang.

- 1) Kattaqo'rg'on; 2) Namangan; 3) Jizzax
A) **3, 1, 2** B) 3, 2, 1 C) 1, 3, 2
D) 1, 2, 3

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi davrga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari davrida bosib olgan shaharlarning yillarini belgilaymiz va ularni xronologik tartibda joylashtiramiz.

- 1) Kattaqo'rg'on – 1868-yil;
2) Namangan – 1876-yil; 3) Jizzax – 1866-yil

To'g'ri javob: A.

Manba: S.Tillaboyev, A.Zamonov.
O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent – 2019.
(31-33-bet)

- 13.** Quyida berilganlardan qaysilari Sharof Rashidov boshqaruvi bilan **bog'liq emas?**
- 1) Mirzacho'l hududlarining o'zlashtirilishi;
 - 2) "Qayta qurish" siyosatining amalga oshirilishi;
 - 3) "Farhod" GESining qurilishi;
 - 4) 1966-yildagi zilziladan keyin Toshkentni qayta tiklash ishlari;
 - 5) "O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilinishi;
 - 6) Toshkent metropolitenining qurilishi

- A) **2, 3, 5** B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 6

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining 1917-1991-yillar davrga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan test topshirig'ida berilgan voqealarni tahlil qilish orqali to'g'ri javobni aniqlashi tavsiya etiladi.

Sharof Rashidov boshqaruvi davri bilan bog'liq bo'lмаган ма'lumotlar:

- 2) "Qayta qurish" siyosatining amalga oshirilishi;
- 3) "Farhod GESining qurilishi;
- 5) "O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilinishi.

To'g'ri javob: A.

Manba: Q.Rajabov, A.Zamonov.
O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. "G'afur G'ulom" nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent – 2017. (116-bet)

- 14.** Angliya burjua inqilobi davri (1640-1688-yillar) bilan **bog'liq bo'lmanan** atamalarni (tushunchalarni) toping.
 1) "Uzoq muddatli parlament";
 2) protektor; 3) "Sharafli inqilob";
 4) Respublika; 5) "chartistlar harakati";
 6) "Buyuk ozodlik xartiyasi"; 7) imperiya
 A) 5, 6, 7 B) 1, 3, 7 C) 4, 5, 6
 D) 2, 3, 4

Test topshirig'i Jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan egallagan tarixiy-siyosiy bilimlari asosida turli tarixiy davrlarda sodir bo'lgan voqealarni tahlil qilish orqali to'g'ri ma'lumotlarni aniqlashi tavsija etiladi.

"Chartistlar harakati" – XIX asrning birinchi yarmi; "Buyuk ozodlik xartiyasi" – 1215-yil, imperiya – XIX asr Ushbu ma'lumotlar 1640-1688-yillardagi Angliya burjua inqilobi bilan bog'liq emas.

To'g'ri javob: A.

Manba: R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. "Cho'lpon" nomidagi-matbuot matbaa uyi. Toshkent – 2019. (30-32-bet)

- 15.** 1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi Xiva xonligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

- A) **Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirgan**
 B) *xonlik iqtisodiy ahvolini ko'tarilishiga olib kelgan*
 C) *Buxoro bilan savdo-sotiqni rivojlantirgan*
 D) *Buyuk Britaniya ta'siri ortishiga olib kelgan*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi davrga oid. Ikkinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. 1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi Xiva xonligini Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirgan.

To'g'ri javob: A.

Manba: S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Shark" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent – 2019. (127-bet)

- 16.** Qadimda Maurya davlatining poytaxti bo'lgan shaharni belgilang.

- A) **Pataliputra** B) *Panjob* C) *Koshala*
 D) *Malla*

Test topshirig'i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Hind sarkardasi Chandragupta Shimoliy Hindistondagi barcha davlatlarni o'z tarkibiga olgan Maurya davlatiga asos solgan. Pataliputra shahri Maurya davlatining poytaxti bo'lgan.

To'g'ri javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent – 2017. (65-bet)

17. IX asr oxiri – X asr boshida qaysi Rus knyazi Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzib, rus savdogarlariga Vizantiya bilan bojsiz savdo qilish imkonini yaratadi?


- A) Oleg B) Yaroslav C) Vladimir
D) Ryurik

Test topshirig'i jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Knyaz Oleg Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzadi. Unga ko'ra, Rus savdogarlariga Vizantiyada bojsiz savdo qilishga ruxsat beriladi.

To'g'ri javob: A.

Manba: T.O'Salimov, F.E.Sultonov.
Jahon tarixi 7-sinf darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2017. (38-bet)

18. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 1, 6 B) 2, 5 C) 4, 7 D) 3, 6

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr tarixiga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu grafikda tarixiy asar va uning muallifini qaysi raqam ostida muvofiq kelishini topish talab etiladi. 1-raqamda "Tarixi Muqimxoniy" asarining muallifi Muhammad Yusuf Munshiy; 6-raqamda "Tarixi Rashidiy" asarining muallifi Muhammad Haydar. Qolgan raqamdagagi tarixiy asarlar va ularning muallifi bir-biriga muvofiq kelmaydi.

To'g'ri javob: A.

Manba: U.Jo'rayev, Q.Usmonov,
G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019. (44-45-bet)

19. Quyidagi davlatlardan qaysi birining milliy valutasi "peso" hisoblanadi?

- A) Meksika B) Laos C) Hindiston
D) Braziliya

Test topshirig'i jahon tarixining eng yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. A) Meksikada – peso; B) Laosda – kipa; C) Hindistonda – rupiya; D) Braziliyada – real.

To'g'ri javob: A.

Manba: Sh.Ergashev, B.Xodjayev,
J.Abdullayev. Jahon tarixi 11-sinf darsligi. "Turon-Iqbol" nashriyoti. Toshkent – 2018. (114-bet)

20. Qaysi olimning kashfiyotlari immunitet haqidagi fanning yaratilishi uchun asos bo‘lgan?

- A) **Lui Paster** B) *Charlz Darvin*
 C) *Aleksandr Bell* D) *Alfred Nobel*

Test topshirig‘i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Hozirgi zamon mikrobiologiya va immunologiya fanining asoschisi Lui Pasterning ilmiy kashfiyotlari immunitet haqidagi fanning yaratilishiga asos bo‘lgan.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: M.Lafasov, U.Jo‘rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (85-123-betlar)

21. XIX asr boshlarida Xiva xonligiga kelgan qaysi rus elchisi o‘zining “Esdaliklar” kitobida o‘zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to‘xtalib, o‘beklarni “aql-idrokli, suhbati yoqimli va o‘tkir, qat’iyatl, matonatli, urf-odati oddiy, yolg‘on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar” deb ta’riflagan?

- A) **N.Muravyov** B) *N.Ignatyev*
 C) *I.D.Xoxlov* D) *R.Baziner*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining XVI-XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Test topshirig‘i matnida berilgan o‘zbek xalqiga xos xususiyatlar haqidagi ta’rif keltirilgan “Esdaliklar” asari Rossiya elchisi N.Muravyov qalamiga mansub.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: U.Jo‘rayev, Q.Usmonov, G.Jo‘rayeva, N.Norqulov. O‘zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (108-bet)

22. Quyida keltirilgan ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida?

"U hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni bekor qildi. Davlat idoralaridagi lavozimlarga dini va mazhabidan qat‘i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlanadigan bo‘ldi."

- A) **Akbarshoh** B) *Shoh Jalon*
 C) *Avrangzeb Olamgir* D) *Humoyun*

Test topshirig‘i Jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Ushbu test topshirig‘i abituriyentdan yuqorida keltirilgan ma'lumot qaysi hukmdorga tegishli ekanligini topish so‘ralgan. Ushbu keltirilgan ma'lumot Boburiy hukmdor Akbarshoh haqida.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: R.Farmonov, U.Jo‘rayev, Sh.Ergashev. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. "Cho‘lpon" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (74-bet)

23. Quyidagi fikrlar kimga tegishli ekanligini toping. “Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak”.

- A) **Sokrat** B) *Demokrit* C) *Geraklit*
 D) *Aristotel*

Test topshirig‘i jahon tarixining qadimgi davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig‘i hisoblanadi. Afinalik mashhur faylasuf Sokrat o‘zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqli kishisi deb e’lon qilingan edi. Bunga javoban Sokrat shunday degan: “Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak”.

To‘g‘ri javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent—2017. (113-bet)

24. XII-XIII asrlarda Fransiyada tashkil etilgan universitetni belgilang.

- A) Tuluza universiteti
- B) Sevilya universiteti
- C) Neapol universiteti
- D) Bolonya universiteti

Test topshirig'i Jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Fransiyada – Tuluza universiteti; Ispaniyada – Sevilya universiteti; Italiyada – Neapol universiteti; Italiyada – Bolonya universiteti tashkil etilgan.

To'g'ri javob: A.

Manba: T.O'.Salimov, F.E.Sultonov.

Jahon tarixi 7-sinf darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2017. (115-bet)

25. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) berilgan javobni toping (o'rta asrlar).

- A) imperator Yustinian I - ostgotlar - Ravenna
- B) knyaz Vatslav - Piastlar sulolasi - xristian dini
- C) qirol Karl Martell - Puate janggi - Muqaddas Rim imperiyasi
- D) qirol Filipp IV - "Yuz yillik urush" - Tyudorlar sulolasining tugashi


Test topshirig'i Jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan berilgan tarixiy voqeani mantiqan to'g'ri ketma-ketlikda berilgan javobni topishini talab qiladi. Imperator Yustinian I-ostgotlar-Ravenna

To'g'ri javob: A.

Manba: T.O'.Salimov, F.E.Sultonov.

Jahon tarixi 7-sinf darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2017. (115-bet)

26. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) adolatli siyosati tufayli xalq orasida "Milliy podshoh", "Xalq hukmdori" nomlariga sazovor bo'lgan; b) musulmon bo'lman shaxslardan olinadigan jizya solig'ini qayta tiklagan; c) hindlarga o'z bayramlarini nishonlashni taqiqladi; d) soliq tizimini isloh qilib, imperiya hududida yagona savdo solig'ini joriy etgan; e) Buxoro xonligi bilan savdo va elchilik munosabatlarini o'rnatgan; f) o'zining sevimli rafiqasi Mumtoz Mahalga bag'ishlab Tojmahal mavzoleyini qurdirgan

- A) I-a, d; II-b, c; III-e
- B) I-a, d; II-b, e; III-c
- C) I-b, c; II-a, d; III-e
- D) I-e, f; II-b, c; III-a

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan Eyler-Venn diagrammasi yordamida Boburiy hukmdorlar Akbarshoh va Avrangzeb Olamgir faoliyatini bilan bog'liq bo'lgan voqealarini umumiy hamda farqli jihatlarini tahlil qilib to'g'ri javobni topishi talab etiladi.

I. Akbarshoh

- a) adolatli siyosati tufayli xalq orasida "Milliy podshoh", "Xalq hukmdori" nomlariga sazovor bo'lgan;
- d) soliq tizimini isloh qilib, imperiya hududida yagona savdo solig'ini joriy etgan;

II. Avrangzeb Olamgir

- b) musulmon bo'lman shaxslardan olinadigan jizya solig'ini qayta tiklagan;
- c) hindlarga o'z bayramlarini nishonlashni taqiqladi;

III. Akbarshoh va Avrangzeb Olamgir faoliyatining umumiy jihatlari:

- e) Buxoro xonligi bilan savdo elchilik munosabatlarini o'rnatgan.

To'g'ri javob: A

Manba: R.Farmonov, U.Jo'rayev, Sh.Ergashev. Jahon tarixi 8-sinf darsligi. "Cho'lpox" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019. (74-76-bet)

27. Quyidagilardan qaysi biri janubiy slavyanlar guruhiga **mansub emas**?

- A) beloruslar
- B) bolgarlar
- C) serlar
- D) xorvatlar

Test topshirig'i Jahon tarixining o'rta asrlar davriga oid. Birinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi.

- a) beloruslar – janubiy slavyanlar guruhiga mansub emas. Ular sharqiy slavyanlar guruhiga mansub hisoblanadi.
- b) bolgarlar, serlar, xorvatlar – janubiy slavyanlar guruhiga mansub.

To'g'ri javob: A.

Manba: T.O'.Salimov, F.E.Sultonov. Jahon tarixi 7-sinf darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent–2017. (115-bet)

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan qadimgi davlat tarixi bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotni toping.



A) Ilk bor Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan

B) Panteon ibodatxonasi barpo etilgan

C) 40 metrli Trayan ustuni qurilgan

D) Ajanta ibodatxonalari buniyod etilgan

Ushbu test topshirig'i abituriyentning xaritadan foydalanib o'zining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini tekshiradi. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Dastlab xaritada yulduzcha ostida berilgan davlatni aniqlaymiz. Bu Qadimgi Yunoniston davlati. Keyin shu davlat tarixi bilan bog'liq bo'lgan voqeani topamiz.

A) Ilk olimpiya o'yinlari o'tkazilgan – mil.avv. 776-yilda Yunonistonda. B) Panteon ibodatxonasi barpo etilgan – Rimda. C) 40 metrli Trayan ustuni qurilgan – Rimda. D) Ajanta ibodatxonasi buniyod etilgan – Hindistonda.

To'g'ri javob: A.

Manba: A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent–2017. (105-bet)

29. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar bir-biriga mos ravishda to'g'ri berilgan?

Nº	Davlat	Voqea
1.	Usmonli davlati	1914-yilda Bosh qo'mondon mamlakat flotiga nemis admirali Sushan boshchiligidagi Rossiya hududlarini o'qqa tutishga buyruq berdi
2.	Braziliya	1880-yilda mamlakatda qulchilik bekor qilindi
3.	Avstriya-Vengriya	1879-yilda Germaniya bilan ittifoq shartnomasi tuzildi
4.	Rossiya	1916-yilda Birinchi jahon urushidan chiqdi
5.	Italiya	1915-yilda Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e'lon qildi
6.	Buyuk Britaniya	1916-yilda Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi

- A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 6

Test topshirig'i jahon tarixining yangi tarix davriga oid. Uchinchi qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan turli tarixiy davrlarda va davlatlarda bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qilish, ularni qiyoslashni talab etadi hamda tahlil asosida jadval qatorlaridagi mos to'g'ri ma'lumotlar aniqlanadi.

- 1) Usmonli davlati – 1914-yilda Bosh qo'mondon mamlakat flotiga nemis admirali Sushan boshchiligidagi Rossiya hududlarini o'qqa tutishga buyruq berdi;
- 3) Avstriya-Vengriya-1879-yilda Germaniya bilan ittifoq shartnomasi tuzildi.
- 5) Italiya – 1915-yilda Avstriya-Vengriyaga qarshi urush e'lon qildi.

To'g'ri javob: A.

Manba: M.Lafasov, U.Jo'rayev, E.Xoliqov, D.Qodirova. Jahon tarixi 9-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019. (85-123-betlar)

30. Bir-biriga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar berilgan qatorlarni aniqlang.

Nº	Sabab	Natija
1.	Angliyada 1380-yilda 3 baravarga oshirilgan jon boshi solig'ini yig'ishdagi suiiste'molliklar, nohaqliklar	"Mayl End" dasturi qabul qilinishi
2.	Ingliz qiroli Ioanning baronlarga qarshi siyosati	"Buyuk ozodlik xartiyasi"ning qabul qilinishi
3.	Fransiya qiroli Lyudovik XI ning yirik feodallarga qarshi siyosati	"Yuz yillik urush"ning boshlanishi
4.	Hindistonning o'zaro urushlarda kuchsizlanib qolishi	Hindistonning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi
5.	Yustinian I ning Rim imperiyasining avvalgi hududlarini tiklash maqsadi	Muqaddas Rim imperiyasining tuzilishi

- A) 1, 2 B) 1, 5 C) 2, 4 D) 3, 4

Test topshirig'i jahon tarixining o'rta asrlar tarixi davriga oid. Ikkinci qiyinlik darajasidagi test topshirig'i hisoblanadi. Ushbu test topshirig'i abituriyentdan turli tarixiy davrlarda va davlatlarda bo'lib o'tgan voqealarni sabab va natijalarini tahlil qilishni talab etadi hamda tahlil asosida jadval qatorlaridagi voqea va uning natijasi mos to'g'ri berilgan ma'lumotlar aniqlanadi.

Jadvaldag'i 1, 2 qatordagi ma'lumotlar to'g'ri.

Jadvaldag'i 3, 4, 5 qatordagi javoblari noto'g'ri.

To'g'ri javob: A.

Manba: T.O'.Salimov, F.E.Sultonov. Jahon tarixi 7-sinf darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2017. (102-103-bet)